

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

Qo‘lyozma huquqida
UO‘K:

MAXMUDOV ASLIDDIN SIROJIDDIN O‘G‘LI

**XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA STRATEGIK BOSHQARUV
HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) ilmiy darajasini olish
uchun yozilgan**

D I S S E R T A T S I Y A

Ilmiy rahbar: Maxsudov Begmatjon Yuldashaliyevich

Iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Toshkent shahri – 2024

MUNDARIJA

	Kirish	3
I BOB	STRATEGIK BOSHQARUV HISOBINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	11
1.1.	Strategik boshqaruv hisobining mohiyati va xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatidagi o‘rni	11
1.2.	Strategik boshqaruv hisobining zamonaviy konsepsiyalari	28
1.3.	Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining hisob-tahlil ta‘minoti tizimida strategik boshqaruv hisobining uslubiy asoslari	44
	Birinchi bob bo‘yicha xulosalar	49
II BOB	XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA STRATEGIK BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL QILISH AMALIYOTI .	51
2.1.	Strategik boshqaruv hisobida xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini baholovchi ko‘rsatkichlar tizimi	51
2.2.	Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda strategik boshqaruv hisobining axborot ta‘minoti	60
2.3.	Strategik boshqaruv hisobini tashkil qilishning zamonaviy amaliyoti	76
	Ikkinchi bob bo‘yicha xulosalar	88
III BOB	AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA STRATEGIK BOSHQARUV HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	90
3.1.	Aksiyadorlik jamiyatlarida strategik boshqaruv hisobini ishlab chiqish va joriy etishni takomillashtirish	90
3.2.	Strategik boshqaruv hisobi axborot ta‘minotining takomillashtirish yo‘nalishlari	101
	Uchinchi bob bo‘yicha xulosalar	114
	Umumiy xulosalar	116
	Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati	120
	Ilovalar	128

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida global raqobatning kuchayishi ko‘plab yetakchi tarmoqlar qatorida kimyo sanoatining yuqori ahamiyatini hamda bugungi ekologik murakkab sharoitda mazkur sohani innovasion rivojlantirishning dolzarbligini oshirmoqda. Marketsand Markets tomondan chop etilgan “Global kimyo sanoati istiqboli 2024” ma’lumotlariga ko‘ra, “mazkur tarmoq 2023 yilda 8 %ga o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lganligini hamda 2024 yilda ushbu segmentlar yangi texnologiyalar, yangi yo‘nalishlar hamda energiya tejavchi ekologik xavfsiz mahsulotlar uchun 165 milliard dollarga teng imkoniyatlarni taqdim etishini prognoz qilmoqda”¹. Bu esa mazkur tarmoqlarda istiqbolli strategiyalarni ishlab chiqishda innovasion mahsulotlarni yaratish, uning atrof-muhitga ta’sirini kamaytirish hamda sohada strategik boshqaruv hisobini takomillashtirishni talab etadi.

Jahon amaliyotida samarali strategik boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va qabul qilish umume’tirof etilgan axborot tizimi strategik boshqaruv hisobi bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Korxonalarining o‘z biznes strategiyalarini samarali shakllantirishi, raqobatdosh talablarning o‘zgarishini hisobga oladigan strategik boshqaruv hisobini ishlab chiqish, ichki siyosat va tartiblarni baholash, strategik boshqaruv hisobi vositasida korporativ muvaffaqiyatga erishish uchun samarali foydalanish, mazkur jarayonlarga nisbatan raqamli texnologiyalar innovasion yondashuvlarni joriy etish, korxonalar tomonidan samarali boshqaruv qarorlari qabul qilish samaradorligini oshirish kabi masalalar bu borada amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

Yangi O‘zbekistonda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish hamda yetakchi tarmoqlarni modernizatsiyalash jarayonlari samaradorligini ta’minlashda xo‘jalik yurituvchi sub’yektlarda strategik boshqaruv hisobini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada strategik boshqaruv hisobini xalqaro amaliyotga transformatsiya qilish asosida “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish, uning asosi bo‘lgan qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish

¹<https://www.marketsandmarkets.com>

ko'rsatkichlarini keskin oshirish orqali sanoatda "yashil sertifikat"lar bozorini rivojlantirish va "ekologik markirovkalash" amaliyotini joriy qilish"² vazifalari belgilab berilgan. Bu esa mamlakatda strategik boshqaruv hisobini qo'llash orqali sanoatda innovatsiyalar uchun sarflangan investisiyalar samaradorligi, "Tez ishlab chiqarish", "Tejamkor ishlab chiqarish" konsepsiyalarini yaratish, qiymat zanjiri, uzoq muddatli strategik maqsadlar uchun prognoz balans tuzish kabi yo'nalishlarda yuritishni talab qilmoqda. Bu kabi ustuvor yo'nalishlar doirasidagi vazifalarni samarali bajarishga erishish uchun strategik boshqaruv hisobida innovasion rivojlanish modulining hisob-tahlil ma'lumotlari innovatsiyalarni joriy etish uchun qilingan xarajatlarni hisobga olishni takomillashtirish, strategik boshqaruv hisobi maqsadlari uchun aktivlar va passivlarning jamlangan moddalari hisoblangan operasion smetalar, daromadlar va xarajatlar smetasi, pul mablag'lari harakati byudjeti va byudjet davri boshidagi belgilangan ma'lumotlar asosida umumlashtirilgan prognoz balans shaklini tuzish, kimyo sanoati korxonalarini strategik boshqaruv hisobining axborot-tahliliy modelini ishlab chiqish, kimyo sanoati korxonalarida strategik boshqaruv hisobining nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida", 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga muljallangan Yangi O'zbekistonning tarakkiyot strategiyasi to'g'risida»gi farmonlari, 2022 yil 10 oktyabrdagi PQ-388-son «Kimyo va gaz-kimyo sanoatini strategik rivojlantirishning maqsadli dasturini tasdiqlash to'g'risida», 2020 yil 24 fevraldagi PK-4611-son «Moliyaviy hisobotning xalkaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida», 2019 yil 3 apreldagi PQ-4265-son «Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va uning investisiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

² <https://lex.uz/ru/docs/6600413> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги ““Ўзбекистон – 2030” стратегияси тўғрисида” ПФ-158-сонли фармони.